

QASHQADARYO XALQ DOSTONLARI MATNIDA QO'LLANILGAN TOPONIMIK INDIKATORLAR TADQIQI (QODIR BAXSHI RAHIMOV DOSTONLARI MISOLIDA)

Abatov Doston

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Indikatorlar nomning qanday, qaysi obyektning atoqli oti ekanini aniqlab, unga ishora qilib turadi. Shunday holat toponimikada ham mavjud. toponimlar tarkibida qo'llanilgan bu kabi vositalar toponimik aniqlagichlar hisoblanib, ular toponimlarning turini aniqlashtirib kelishga xizmat qiladi. Maqolada qashqadaryolik Qodir baxshi Rahimov tomonidan kuylangan xalq dostonlari matnida qo'llanilgan toponimik ko'rsatkichlarining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *nom ko'rsatkichi, indikator, aniqlagich, toponim, oykonomik indikatorlar, gidronimik indikatorlar, xalq dostonlari, onomastika, oronimik indikatorlar.*

O'zbekiston tarixiy toponimiyasida tarkibiy jihatdan aholi maskanlari ma'nosini beruvchi so'zlardan tashkil topgan joy nomlari uchraydi. Nom tarkibidagi bunday so'zlar garchi shaklan turli xil bo'lsa-da, lekin ma'no jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Toponimlar ustida olib borilgan tadqiqotlar bu so'zlarni va ulardan tashkil topgan joy nomlarini lisoniy jihatdan qadimgi eroniy tillarga tegishli ekanligini ko'rsatdi.

Toponimikada indikatorli nomlar ko'p uchrashi shu sohaga bag'ishlangan ishlarda alohida qayd etib o'tilgan. Toponimikaning uch turida quyidagi apellyativlar indikator vazifasida qo'llanadi:

1. Oykonomik indikatorlar: *shahar, qishloq, ovul, kent, kat, uba, deh, daha, obod, diz, langar, zoy, man/mayn, to'rtko'l, mitan, duvon, saroy, hisor, chaqar, rabot, rabad, duvol, kid/gird, baliq, qarshi, chem/chim, ko'cha, guzar, mahalla, qal'a, qo'rg'on, xona/kana/qana, qo'ton, darvoza, chayla, kapa, minor, qo'ra, koh, xonaqa, bog', to'p, to'pi, tupor, to'da, bozor, machit, yurt, qo'nish, qasaba, chorbog', registon, to'proqqo'rg'on, yer, bandar.*

2. Gidronimik indikatorlar: *okean, dengiz, daryo, rud, ob, suv, kass/qas/xas, o'kuz, jom/jam/jan, shom/shan, kom/kon/kam/gon, dak, arna, yop, jo'y, jo'ybor, koriz, band, dahna, choh, chashma, buloq, ko'rbuloq, yorma, xon, nov/nova, shox, ariq, quduq, hovuz, ko'l, qo'l, jilg'a, soy, solma, anhor, nahr, kanal, qozoq, suvombor, selxona, qoq, guzar, kechik, suvlot, darak, to'g'on, quloq, poyga, sharshara, obgoh, obdon, sardoba, pul, ko'prik, girdob, uyrim, shuvar/shibar, yog'och, novur, o'zak, o'zan, saqo, selga, chot, bandar, izma.*

3. Oronimik indikatorlar: *tog', tosh, qoya, qiya, cho'qqi, qir, tepa, dovon, bel, sirt, adir, ko'tal, ort, do'ng, cho'l, gaza, dara, tangi, zov, jar, ko'h, kamar, to'da, sang, dala, dasht, mo'la, nura, o'r, o'ra, matsdon, aydar, mast/most, taxta, karta, alang,*

qo'l, shoti, ayri, so'yri, ag'ba, yaylov, chovra, bitov, huchchi, tubak, qaloq, do'm, bo'ktar, zayak, plan, hayot, shoh, qashqa, qat, qatov, qoboq, singir, sala, jo'n/jo'na, to'qay, joy, paykal, orol, qizil, qora, chag'il/chag'al, chag'at, supa, yona, yo'l, shiram, chuqur, handaq, g'o'rim, qum, chakmbar, qaqir, taqir, dagar, to'la, yer, bayir, mozor, sho'r, bet, havol, g'or, poya, qo'riq, oq, gul/kul, tuz, chalqa, ota, bobo, shayit, tumshuq, qapug', darvoza, darband, qiz/quz, tig'/teg', baraz, shirdon, bo'z, jira, qayir, bo'yin, bo'ynoq, boldir, o'rmon, changal/jangal, angar, pushta, qasav/qasag'a, qasnaq, orqa, orqavul, burun, oshuv, qayqi, o'y, o'r, takcha, qapchig'ay, kam, yovon, yoz, hovar, jovuz, o'lang, zarang, sahro, uz, chortoq, sangir, bodiya, mog'ora, varg', darg', dabsan, jo'sha, tarma, tirsak, chosh, chek, ungur, chordara, chig'anaq, ang'iz, qo'riqxon, oston.

Quyida ularning ayrimlari xususida alohida to'xtalishga harakat qilamiz.

Tog' indikator. Tog' Yer yuzasining tevarak-atrofdagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holda baland ko'tarilgan, odatda, tosh, qattiq jismlardan iborat qismi³⁵.

Qodir baxshi Rahimov dostonlari tilida tog' indikatorli oronimlar keng qo'llangani ko'ramiz: *Asqar tog'i, Polapon tog'i, Junxay tog'i, Chakchak tog'i, Ko'ytang tog'i, Boboxon tog'i, Boysintog', Hisortog'* kabi. Tog' indikatorining qipchoq shevalaridagi fonetik shakli sanalgan *tov* indikator ham dostonlar matnida qo'llangan. Masalan, baxshining "Kelinoy yoki Norguloy" dostoni tilida *Oqbosh tov, Oqbet tov, Oqtov* singari oronimlar qo'llangani kuzatildi.

Qoya indikator. Qoya leksemasi lingvistik lug'atlarda polesemantik xususiyatga egaligi ko'rsatiladi va uning quyidagi ma'nolari zikrlanadi:

- qattiq, tub jinslardan iborat tik ko'tarilgan cho'qqi, jarlik, tepa (asosan, nurash natijasida qattiq tog' jinslarining ochilib, yer yuziga chiqib qolishidan hosil bo'ladi);
- baland tik tosh, qoyatosh³⁶.

Qoya va qoyatosh so'zlari o'zaro ma'nodoshlik maqomiga ham ega. Qoya – ko'pincha uchi o'tkir, qattiq tub tog' jinsidan tuzilgan balandlik ma'nosini anglatadi. Baxshi dostonlari matnida *qoya* indikatorli oronimik birliklar ham qo'llanganini ko'ramiz: *Qizilqoya* kabi.

Dovon indikator. O'zbek tilining izohli lug'atida *dovon* leksemasi omonimik xususiyatga egaligi ko'rsatilgan va uning quyidagi ma'nolari izohlangan:

DOVON I 1 Tog' va tepalikning baland, ammo oshib o'tsa bo'ladigan qulay joyi; oshuv. *Qashqar dovoni. Arpasiz ot dovon osholmas.* Maqol...

2 ko'chma Keyingi ish va yutuqlarga yo'l ochib beradigan ulkan ish; erishilgan va erishilajak qiyin marra. *Oila qurish naqadar yuksak dovon ekanini Mahkam endi birinchi marta... his qilmoqda edi.* P. Qodirov, Uch ildiz...

3ko'chma Xayoliy, ruhiy marra, maqsad, intilish. *Ey ko'nghim, olamdan suyunchi so'ra, Dovonlar, tog'lardan yelday uchib o't.* Mirtemir, Asarlar...

³⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 4-j. – B.163.

³⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 5-j. – B.353.

DOVON *Ilmaxs.*, kam. *qo'll*. To'quvchilarning ishxonasida ikki ustunning tepa oraliq'ida o'rnatilgan va ustidan tosh bog'langan tanda oshirib qo'shiladigan yog'och g'altak³⁷.

Lug'atda berilgan **DOVON I 1** biz tadqiq qilayotgan mavzuga tegishlidir. Ushbu leksema toponimikaning oronimika sathida indikator vazifasini ham o'taydi. Jumladan, Qodir baxshi dostonlari matnida berilgan quyidagi oronimni ko'rishimiz mumkin: *Oqdovon*.

Dara indikator. Dara leksemasi tarixiy-etimologik jihatdan fors-tojik tillariga tegishli bo'lib, asli tog' oraliq'idagi yo'l, jarlik ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilida ikki tog' oraliq'idagi uzun, nisbatan tor, chuqur joy; jarlik ma'nolarida qo'llanadi. Tilimizda dara so'ziga ma'nodosh sifatida zov so'zi ham qo'llaniladi. Zov so'zi ham o'zlashma, ya'ni fors-tojik tilidan kirib kelgan bo'lib, aynan dara, tog' oraliq'idagi chuqurlik; jarlik ma'nolarini anglatadi³⁸.

Tadqiq qilinayotgan dostonlar tilida bunday indikatorli quyidagi oronimlar mavjud: *Katta dara*, *Kengay dara*.

Cho'l indikator. Cho'l leksemasi ko'pma'noli bo'lib, lingvistik lug'atda uning quyidagi ma'nolari izohlangan:

CHO'L 1 O'simlik kam o'sadigan, domiy quruq va issiq iqlimli, suvsiz bepayon dasht; sahro, biyobon. *Qizilqum cho'llari*. *Qaqroq cho'l*. *Boysun cho'li*....

2 *ko'chma kam qo'll*. Tashna, zor. *Bolaga cho'l xotin*³⁹.

Baxshi dostonlari matnida *cho'l* indikatorli quyidagi nom qo'llangan: *Arpali cho'li*.

Soy indikator. O'zbek tilining izohi lug'atida bu apellyativ ko'p ma'nolsi so'z sifatida qayd etilgan va uning quyidagi ma'nolari zikr etilgan:

SOY 1 Ikki adir yoki tog' oraliq'idagi, ko'pincha oqar suvlar harakati va b. natijasida hosil bo'lgan pastlik joy, suv yo'li, vodiy. *Boy boyga boqar*, *suv soyga oqar*. Maqol. – *Hozir ko'klam kunlari: qirlar, soylar qip-qizil.. pushti, go'los va allaqancha rangli chechaklar bilan ustlarini bejab, oshiq'larga yangi hayot, yangi umid berdilar*. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

2 Shunday vodiy, pastlikda mavsumiy yoki doimiy oqadigan kichik daryo, irmoq, ariq. *Soy suvi*. *Soyda cho'milmoq*. *Soydan kechib o'tmoq*. *Choy to'kilib soy bo'lmas*, *yulduz yig'ilib oy*. Maqol.

3 *maxs*. Miltiq stvolidagi burama ariqcha⁴⁰.

O'zbek tili oronimikasida soy apellyativi indikator vazifasidja keladai va ko'plab atoqli otlarni yasashda xizmat qiladi. Jumladan xaql dostonlari tilida ham bu

³⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 1-j. – B.633.

³⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 1-j. – B.556.

³⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 4-j. – B.523.

⁴⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 3-j. – B.545.

holatni kuzatish mumkin: *Konsoy, Jilg'asoy* kabi oronimik birliklar biz tadqiq etayotgan dostonlar matnida kelgan.

Rabot indikator. Rabot so'zi tilimizga arab tilidan o'zalshgan bo'lib, karvonsaroy, musofirxona degan ma'nolarni anglatadi. Izohli lug'atda bu apellyativning quyidagi ma'nolari berilgan:

RABOT *tar.* 1 Mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan ma'lum masofaga turadigan qo'rg'on; istehkom. *Mirzacho'ldagi har bir daraxt, uy.. rabot juda ko'p noma'lum qahramonlarni tilsiz hikoya qilib berishi mumkin.* S. Akbariy, Shodlik davomi.

2 Savdo yo'llaridagi mustahkamlagan manzil, karvonsaroy. *Navoiy: Ariq qazmoqdamiz, cho'llarda ish ko'p. Rabotu madrasa, yo'llarda ish ko'p.* Uyg'un va I. Sulton, Alisher Navoiy.

3 Shahardan chetroqdagi turarjoy. *Shaharning mehnatkash hunarmand yashaydigan yangi qismi – rabotda hayot qaynaydi.* M. Aminjonova, Shishaning kashf qilish tarixidan⁴¹...

Qodir baxshi Rahimov "Kelinoy yoki Norguloy" dostoni matnida *rabot* indikatorli quyidagi atoqli otlar (joy nomlari) qo'llanganini ko'ramiz: *Sultonrabot.*

Chashma indikator. Chashma apellyativi asosan suv nomlari tarkibida uchraydi. Bu leksema fors tilidan o'zlashgan bo'lib, lingvitik lug'atlarda uning quyidagi ma'nolari berilgan:

CHASHMA (*f.* buloq, manba) 1 Yer ostidan chiqayotgan suv manbai va uning suvi. *Mergan bag'rini berib, chashma suvidan qonib-qonib ichdi. Uning o'tkir ko'zlari chashma atrofidagi giyohlarga tushdi. "Yoshlik"*.

2 *ko'chma* Biror narsaning manbai. *Ijod chashmasi. Bilim chashmasi. Mehr chashmasi*⁴².

Baxshi dostonlari matnida chashma indikatorli gidronimlar oz bo'lsa-da qo'llanilgan: *Zarchashma.*

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashning samarali texnologiyalari

Karimova Ullibibi Baxrom qizi, magistratura talabasi, Toshkent davlat pedagogika universiteti. Bibikarimova@gmail.com Tel.: +998990539997

Zamonaviy dunyoda pedagogika yillar davomida shakllangan an'analar va stereotiplardan voz kechib, o'z yondashuvliarni qayta ko'rib chiqish davrini boshdan kechirmoqda. Pedagogik texnologiyani o'zlashtirish o'qituvchilik kasbini egallashda ham, ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini baholashda ham juda muhim va ustuvor omilga aylanadi. Pedagogik texnologiyalarni puxta bilish va ulardan mohirona foydalanish mahorati - zamonaviy o'qituvchiga davr talabi bo'lmoqda. YuNESKO tomonida ta'lim texnologiyasiga texnik va inson resurslari, ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish va o'qitishning butun

⁴¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 3-j. – B.332.

⁴² O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 4-j. – B.465.

o'quv jarayonini yaratishning tizimli usuli sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonining texnologik samaradorligi ta'lim jarayonini to'liq boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Harakatlar, maqsadlar, ularga erishish yo'llari va ta'lim faoliyati natijalarini anglash o'quvchilarni o'quv jarayonining sub'ektiga aylantiradi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik qilish va uning o'z-o'zini o'rganishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Texnologik yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish nafaqat har bir o'quvchining individual qobiliyatlariga mos ravishda uning ta'lim ehtiyojlarini qondirish, balki o'quvchilarning o'zini o'zi anglashi, rivojlanishi, ularning uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarini shakllantirish uchun sharoit yaratishga imkon beradi. zamonaviy jamiyatda to'laqonli hayotini ta'minlaydi. O'quvchilarga hamma narsani o'rgatishning iloji yo'q, turli fanlarning eng muhim yutuqlarini bolalarning miyasiga singdirish o'qituvchilarning pedagogic kuchini baholamaydi. Bolalarga "baliq emas, balki qarmoq tayog'i" berish, ularni ushbu bilimlarni egallashga o'rgatish, o'qitish orqali intellektual, kommunikativ, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish juda muhimdir. Bunda eng muhim savol "Qanday qilib o'rgatish kerak?" va shundan keyingina "Nimani o'rgatish kerak?" bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy o'quv texnologiyalari bugungi kunda juda dolzarb bo'lib, ular o'quvchilar faoliyatini tashkil etishga, ushbu faoliyat orqali ularning ko'nikmalarini, fazilatlarini va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Inson hayoti davomida uch xil faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi: o'yin faoliyati, o'quv faoliyati va mehnat faoliyati. Bu dastlabki ikki faoliyatning ham asosiy negizi, tub ma'nosi aslida bolani mehnat faoliyatiga tayyorlashdir. Turli kasb anjomlariga taqlid qilgan o'yinchoqlar, maktablardagi mehnat ta'limiga tayyorlovchi darslar fikrimizning yaqqol dalilidir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun mehnat ta'limi uzviyligi va uzluksizligi ta'minlashdan maqsad ham ularni mehnat faoliyatiga samarali tayyorlashdir. Biz yuqorida eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun mehnat ta'limi ya'ni texnologik ta'limning sifatini oshirishni 3 ta yo'nalishini aytib o'tgandik. Endi mehnat ta'limiga tayyorlashning samarali texnologiyalari ustida so'z yuritamiz.

1. o'yin texnologiyalari
2. axborot-kommunikativ texnologiyalar
3. tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari
4. integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalari

Bu texnologiyalar mehnat ta'limi sifatiga, uzviylik va uzluksizligiga, samaradorligi oshishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi bola shaxsini rivojlantirishning quyidagi muhim tomonlariga e'tibor qaratib, ta'lim texnologiyalarini tanlashi kerak:

- = bolaning moyilligi va qobiliyatlarini rivojlantirish hamda amalga oshirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish
 - bolani imkoniyatlarini hisobga olish
 - mavjud manfaatlarni qondirish
 - "barchani bir qolipga solish" stereotipini yo'q qilish

- o'qish uchun motivatsiyani oshirish
- o'quvchining o'zini o'zi boshqarishi
- qobiliyatlarni erta rivojlantirish
- kasbga yo'naltirish, ixtisoslashtirish
- tanlov erkinligini amalga oshirish
- "ijtimoiy sinovlar" imkoniyatini ta'minlash

Endi esa yuqoridagi ta'lim texnologiyalarning umumiy tavsifi va ulardan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mehnat ta'limi darslarida qay tarzda foydalanish mumkinligini ko'rib chiqamiz,

1. O'yin texnologiyalari. Ta'rifga ko'ra, o'yin ijtimoiy tajribani yaratish va o'zlashtirishga qaratilgan vaziyatlar sharoitidagi faoliyat turidir, bunda xatti-harakatlarda o'zini o'zi boshqarish rivojlanadi va takomillashadi. Ushbu texnologiya shaklidan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- bilimlarni o'zlashtirishda erkin, psixologik zo'riqishsiz nazoratni amalga oshiradi.

- o'quvchilarning muvaffaqiyatsiz natijalarga nisbatan salbiy munosabati yo'qoladi.

- o'qitishda o'quvchilarga individual yondoshish imkoni kengayadi

O'yinni o'tkazish o'qituvchiga quyidagilarni o'rgatishga imkon beradi: tushunchalarni tanib oling, taqqoslang, tavsiflang, ochib bering, asoslang, qo'llang O'yinni o'tkazish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda quyidagi natijalarga erishiladi:

- kognitiv faoliyat rag'batlantiriladi
- aqliy faoliyat faollashadi
- nutqiy muloqot rag'batlantiriladi
- axborot o'z-o'zidan yodga olinadi
- assotsiativ yodlash shakllanadi
- mavzuni o'rganish uchun motivatsiyani oshirish

Bularning barchasi mehnat ta'limi berishda o'yin jarayonidan foydalanishsh samaradorligini ko'rsatadi.

2. Axborot-kommunikativ texnologiyalar. Pedagogik mukammallik fan, texnika va ularning mahsuloti - axborot texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish darajasiga mos keladigan bilim va ko'nikmalar birligiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda biz turli xil manbalardan ma'lumot olishimiz, undan foydalanishimiz mumkin. AKTdan keng foydalanish o'qituvchiga o'z mavzusini o'qitishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi, shuningdek uning ishini katta darajada yengillashtiradi, o'qitish samaradorligini oshiradi va o'qitish sifatini yaxshilaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga mehnat ta'limi berish jarayonida videodarslar, electron kitoblar, slaydlardan foydalanish mumkin va bu eshitishga kompensator bo'lgan ko'rish analizatori orqali ko'p va tushunarli ma'lumot olish imkonini beradi. O'qituvchi axborot -koomunikativ texnologiyalar yordamida turli fanlarni bir biriga bog'lashi, o'tilgan mavzularni takrorlashi oson bo'ladi, buning uchun materialni to'g'ri tanlay olishi va ustalik bilan

qo'llay olishi kifoya. Axborot-kommunikativ texnologiyalarning ustunligi quyidagilarda:

- vizuallik
- rang-baranglik
- manbalarning ko'pligi
- qulaylik (qog'oz ko'rgazmalarga qaraganda chidamli)
- ovoz kuchaytirgich bilan qo'llash imkoniyati.

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish rexnologiyalari. Tanqidiy fikrlash o'zi nima? Tanqidiy fikrlash bu har qanday axborotni bilimni shundayligicha quruq o'rganib, yodlab ketmasdan uning mohiyatini o'rganish, "nima uchun shunday" degan savolga javob topishdir. Bu texnologiya o'quvchilarni yanada erkin fikrlashga, kreativlikga, izlanuvchanlikga chorlaydi. O'rganayotgan narsasining mohiyati tushungan o'quvchi albatta uni boshqa bilimlar bilan uyg'unlikda qo'llay oladi. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish asosan uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich- eslash bosqichi, bunda o'rganilayotgan narsa bilan bog'liq ma'lumotlar xotiraga olinadi va o'quvchilarning asos bilim darajasi aniqlanadi. Ikkinchi bosqich bu tushunish bosqichidir. Bu bosqichda "nimaga" degan yo'naltiruvchi savol orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq mulohaza qilishga undaladi. Voqea hodisalarning mazmuni teranroq anglashiladi. Uchinchi bosqich mustahkamlash bosqichida tahlil qilingan ma'lumotlarning tog'rsisi xtirada saqlanadi.

Bu metdning afzalligi shundaki, u yordamida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga yangi tushunchalarni avvaldan bor bo'lgan bilimlariga uzviylikda o'rgatish oson bo'ladi. Fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Tahlil qilish jarayonida fikrlarda turli -tumanlik, kreativlik, originallik shakllanadi. Kelgusida o'z faoliyatini amalga oshirishda mantiqiy zanjir tuza oladi.

4. Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi. Bu texnologiya noan'anaviy darslarni o'tkazish uchun juda mos keladi. Integratsiyalash orqali ma'lum bir sohada umumlashtirilgan bilimlar bitta materialda uyg'unlashtiriladi. Bu tarzda darslar nima uchun kerak? Avvalo, bizni o'rab turgan borliq bitta yaxlit sistemadan iborat, undaki barcha narsa va voqea-hodisalar bir biriga bog'liqdir. Ammo, odatda, maktabda o'quv fanlari bitta narsani o'z qarashlari tomonida bir taraflama talqin qiladi. O'quvchilarda bitta narsa haqida turli bir biriga bog'lanmagan fikrlar bo'ladi. Misol uchun Quyosh fizika fani uchun Yerni tortishish kuchida ushlab, isitib turadigan osmon jismi, kimyo fani uchun vodorod va geliydan iborat ulkan shar, tasviriy san'at fani uchun sariq dumaloq jism, adabiyot fani uchun mehr va qudrat ramzi bo'lib ifodalanadi.

Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning imkoniyatlarini rivojlantiradi, atrofdagi voqelikni faol bilishni rag'batlantiradi, sabab-ta'sir munosabatlarini tushunishga va topishga, mantiq, fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Birlashtirilgan darslarni o'tkazish shakli nostandart va qiziqarli. Dars davomida turli xil ish turlaridan foydalanish o'quvchilarning e'tiborini yuqori darajada ushlab turadi, bu esa darslarning yetarli samaradorligi to'g'risida gapirishimizga

imkon beradi. Integratsiyalashgan darslar muhim pedagogik imkoniyatlarni beradi. Zamonaviy jamiytdagi integratsiya ta'limda integratsiyalashuv zarurligini tushuntiradi. Zamonaviy jamiyat yuqori malakali, yaxshi tayyorlangan mutaxassislarga muhtoj. Integratsiya o'quvchining o'zini o'zi anglashi, o'zini namoyon qilishi, ijod qilishi uchun imkoniyat yaratadi, qobiliyatlarni ochib berishga yordam beradi. Bu ta'lim texnologiyasi bir nechta afzalliklari bilan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga mehnat ta'limi o'rgatishda qo'l keladi:

- o'quv motivatsiyasini oshiradi, qiziquvchanlik, voqea-hodisalarni yaxlit formatda tasavvur qilishga o'rgatadi;

- oddiy darslarga qaraganda bunday darslar nutqni rivojlantiradi, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi;

- ma'lumotlarni o'zaro bog'lashga, ular orasidagi uzviylikni anglashga yordam beradi.